

**TARBIYACHILIK KASBIGA KIRISH VA PEDAGOGIK  
MAHORATNI EGALLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Jabborova Marifat Qodiraliyevna,**

**Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi, PhD**

[jabborovamarifar@gmail.com](mailto:jabborovamarifar@gmail.com)

**Annotatsiya:** Boʻlajak tarbiyachining kasbiy shakllanish jarayonida maktabgacha taʼlim tashkiloti rahbariyati va jamoatchiligi muhim ahamiyatga ega. Oʻz kasbiy xususiyatiga koʻra tarbiyachi-pedagog har doim zamon bilan hamnafas, tetik, gʻayratli, oʻz kuchi va imkoniyatiga ishonishi kerak. Pedagoglik kasbiga xos boʻlgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi.

**Kalit soʻzlar:** sadoqatlilik, gʻoyaviy eʼtiqodlilik, kasbiylik, imidj, empatiya, bagʻrikenglik, mentorlik, stajirovka.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПРИОБЩЕНИЯ К  
ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ПРОФЕССИИ И ОВЛАДЕНИЯ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ МАСТЕРСТВОМ**

**Жабборова Марифат Кодиралиевна, PhD**

**Преподаватель Ферганского государственного университета,**

**Аннотация:** В процессе профессионального становления будущего педагога важное значение имеет руководство организационно-педагогического образования и общественности. По своему профессиональному характеру педагог-педагог должен всегда идти в ногу со временем, быть энергичным, увлеченным, верить в свои силы и возможности. Педагогический этикет формирует такие качества, характерные для профессии учителя.

**Ключевые слова:** лояльность, идеологическая убежденность, профессионализм, имидж, эмпатия, толерантность, наставничество, стажировка.

**IMPROVING THE PROCESS OF ENTERING THE EDUCATIONAL  
PROFESSION AND MASTERING PEDAGOGICAL SKILLS**

**Jabborova Marifat Qodiraliyevna, PhD**

**Teacher of Fergana State University,**

**Abstract:** In the process of professional development of a future teacher, the leadership of preschool education organizations and the public is important. By his professional nature, a teacher educator must always keep up with the times, be energetic, enthusiastic, and believe in his own strengths and capabilities. Pedagogical etiquette forms such qualities characteristic of the teaching profession.

**Key words:** loyalty, ideological conviction, professionalism, image, empathy, tolerance, mentoring, internship.

## **KIRISH.**

Hozirgi zamon pedagogining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat pedagogni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Maktabgacha ta'lim tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi nafaqat pedagogga, balki uning kasbiy tayyorgarligiga ham bog'liq.

Tarbiyachi imidji uning kasbiy mahorati va bolalarga ta'sirining muhim jihati hisoblanadi. Tarbiyachi imidjining bir nechta asosiy jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagicha tavsiflanadi:

- Kasbiylik: Bu nafaqat fanni bilish, balki bolalarga samarali ta'lim va tarbiya berish, rag'batlantirish, qo'llab quvvatlash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

- Shaxsiy fazilatlar: Mehribonlik, bag'rikenglik, halollik, hamdardlik, o'z vaqtida ish tutish, mas'uliyat – bularning barchasi tarbiyachi-pedagogning obro'li shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantiradi.

- Tashqi ko'rinish va muloqot uslubi: tarbiyachining kiyinish va muloqot odobi, jumladan ovoz ohangini, imo-ishoralarni va yuz ifodasini o'z ichiga oladi.

- Ta'lim va uzluksiz rivojlanish: Tarbiyachi o'rganishga qiziqish ko'rsatishi, malaka oshirish tadbirlarida ishtirok etishi va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi kerak.

- Axloqiy me'yorlar: Tarbiyachi-pedagog bolalarga odob-axloq, hurmat va mehr-oqibatda o'rnatilishi kerak[1].

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Pedagog-tarbiyachi imidji bolalar, ularning ota-onalari va hamkasblarining ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa bolalarning ahloqiy tarbiyasi va ta'limdagi umumiy muvaffaqiyatga ta'sir qiladi.

Pedagogning yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Tarbiyachi-pedagog milliy qadriyatimizni bilibgina qolmay, uni keng ota-analar jamoatchiligi ichida, otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak[2].

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining o'ziga xos fazilatlari mavjud bo'lib, bu fazilatlar aynan tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlardir:

- Empatiya va bag'rikenglik: bolalarni his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini tushunish va idrok etish, shuningdek, ularning xususiyatlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish qobiliyati.

- Tarbiyachilik ishtiyoqi: tarbiyachining bilim berishga ishtiyoqi, bolalarni bilim olishga undashi kerak.

- Tashkiliy ko'nikmalar: ta'limiy faoliyatlarni samarali rejalashtirish, bolalar bilimni odilona baholash, rejalashtirilgan va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish qobiliyati.

- Sabr-toqat: Har xil xarakterga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash sabr-toqat va muammolarni, nizolarni hal qilish qobiliyatini talab qiladi.

- Boshqaruv vakolati va hurmat: Tarbiyachi-pedagog sog'lom boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, bu bilim, tajriba va bolalarga bo'lgan hurmatga asoslangan.

- Ta'lim va rivojlanish: Yaxshi tarbiyachi doimiy ravishda o'rganish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi, o'z bilim va malakasi darajasini doimiy ravishda oshirishi kerak.

Bu fazilatlar yuksak malaka va bolalarga mehr-muhabbat bilan uyg'unlashib, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatli va ta'sirchan qiladi. Bu fazilatlar bilan birga pedagog kasbiga xos bo'lgan eng muhim fazilatlardan, talablardan biri-bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan

iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi, buyuk Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy pedagog bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziq- maydigan, peagoglik kasbiga loqayd inson haqiqiy pedagog bo'la olmaydi[3]. Bu fazilatlar egasi bo'lish bilan bir qatorda tarbiyachi:

- bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamma milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiya qila olishi;

- nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

Pedagoglik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob bu pedagogning yuksak kasbiy fazilatidir. U pedagogning sabotli bo'lishga, o'z hissiyotini idora qola olishga, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorlarini belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan pedagoggina guruhda mo'tadil psixologik iqlim o'rnatadi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi.

O'z kasbiy hususiyatiga ko'ra pedagog tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun pedagog tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur[4]. Tashabbuskor va g'ayratli tarbiyachi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi.

Pedagoglik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun pedagogning salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi.

Pedagogning ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi kerak, uzoq vaqt tik katura olish, ko'p yurish, epchil harakat qilish kabi fazilatlarga ega bo'lmog'i shart. Chunki kichik maktab yoshidagi bolalar o'z xususiyatlariga ko'ra tinib -tinchimaydigan, o'ta qiziquvchan, serharakat bo'ladilar. Bu sharoitda pedagog ham shu darajada harakatchan bo'lishi kerak.

### **TAHLIL VA NATIJALAR.**

Har bir tarbiyachi anatomiya, fiziologiya, gigiyena fanlaridan xabardor bo'lib, bolalar faoliyatini shu fanlar tavsiyasi asosida tashkil etishi lozim; pedagog o'z

nutqini idora qilishi; adabiy nutq normalariga rioya qilishi, ovozning baland-pastligiga ahamiyat berishi (ortiqcha qattiq (baland ovoz bilan) gapirish ham, sekin gapirish ham bolalarni charchatib qo'yadi); nutqning jonli, ifodali bo'lishiga e'tibor berishi; bolalarni charchatib qo'ymaslik maqsadida darsda ish turlarini tez-tez o'zgartira olishi; ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o'rnatish olishi va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yordamlashishi kerak. Shuningdek, u o'z ustida tinmay ishlamoq'i lozim[5]. Ayniqsa qadriyatlarimizni o'rganishga, o'zligimizni tanishimizga, qadimiy madaniyatimizni bilishga ehtiyoj katta bo'lmoqda, zero, bu narsalarni bilmay turib mustaqilligimizni mustahkamlab, buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Shunday ekan, kichik guruhdan boshlab bolalar sharqona tarbiya ta'siriga olinmog'i, o'z qadriyatini bilmog'i lozim. Bu pedagogdan shu sohada chuqur bilimli bo'lishni talab etadi.

Tarbiyachining kasbiy rivojlanishi bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim: Pedagogika yo'nalishi bo'yicha oliy kasbiy ma'lumotga ega bo'lish, muayyan fan yo'nalishi yoki talabalarning yosh toifasi bo'yicha mutaxassislik.

2. Amaliyot: Ta'lim muassasalarida ish tajribasi, pedagogik amaliyot, tajribali pedagoglar rahbarligida amaliyot o'tash.

3. Malaka oshirish: pedagog doimiy ravishda o'z malaka va bilimni oshirib borishi, kasbiy treninglar, seminarlar, malaka oshirish kurslarida qatnashishi kerak.

4. Mehnat va o'z-o'zini takomillashtirish: Pedagogik adabiyotlarni mustaqil o'rganishi, kasbiy faoliyat haqida fikr yuritishi, talabalar bilan o'zaro munosabatlarni tahlil qilish va yangi usul va yondashuvlarni izlashi.

5. Kasbiy jamoaga integratsiya: pedagogning ta'lim jamoalarida faol ishtirok etishi, o'z hamkasblari bilan tajriba almashishi, doimiy muloqotda va bilim almashishda bo'lishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogning malakasini oshirish doimiy jarayon bo'lib, u kuch va intizomni talab qiladi, bu esa kasbiy mahoratni va bolalarning ta'lim sifatini oshirishga olib keladi[6].

Pedagogning kasbiy shakllanish jarayoni oliy ta'lim dargohida ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. Pedagogika institutlarining o'quv-reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak pedagoglarga shu kasbning siru-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, pedagoglik kasbi haqida ma'lumot va ko'nikma berish nazarda tutiladi[7]. Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashgagina emas, balki ularni amaliyotda qo'llashga imkon ham beradi. Bunday mashg'ulotlar bo'lajak tarbiyachilarni tanlagan kasbi to'g'ri ekanligiga ishoch hissini uyg'otadi.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy shakllanib borishida 1-bosqichdan boshlab amalga oshiriladigan uzluksiz pedagogik amaliyot alohida ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi o'qishning birinchi yilidan boshlab kasb sirlarini o'rgatish, pedagoglik kasbidan xabardor qilib borishdir, qolaversa, uzluksiz amaliyot kasb tanlashga yo'llash vazifasini ham o'taydi.

### **MUHOKAMA.**

Pedagogning kasbiy shakllanish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati va jamoatchiligi katta rol o'ynaydi. Yosh pedagoglarga tajribali pedagoglarni biriktirib qo'yish, ularning faoliyatlarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish tashkilot rahbariyatining vazifasidir.

Shuningdek, pedagogning kasbiy mukammallikka erishish jarayoni ko'plab omillarga bog'liq, jumladan:

1. Ta'lim sifati va kadrlar tayyorlash: pedagoglar malakasini oshirish muassasalarida olingan ta'lim sifati pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Mentorlik va stajirovka: tajribali pedagoglar rahbarligida amaliyot o'tash tajribali pedagoglardan o'rnak olish va qimmatli maslahatlar, ko'rsatmalar olish imkonini beradi.

3. Tajriba: Turli ta'lim vaziyatlari bilan ishlash bo'lajak tarbiyachilarda amaliy tajriba, pedagoglik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Kasbiy muloqot: Tajribali hamkasblar bilan muloqot qilish, va tajriba almashish pedagoglik mahoratni oshirishga yordam beradi.

5. O'z-o'zini takomillashtirish: O'qitishning yangi usullarini doimiy ravishda o'rganish, bilimlarni yangilash, shuningdek, o'z kasbiy amaliyoti haqida fikr yuritish.

6. Hissiy intellekt: O'z his-tuyg'ularini samarali boshqarish va bolalarga hamdardlik bildirish qobiliyati pedagoglarga o'z bolalarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi[8].

### **XULOSA.**

Umuman olganda yuqoridagi omillarning barchasi birgalikda pedagogning pedagogik mahoratini oshirishga va uning kasbiy shaxsini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachilik kasbiga kirish va pedagogik mahoratni egallash jarayoni, uni maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnini topib keta olishiga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'g'irmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushkunlikka tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni yo'qotish uchun harakat qilish uni pedagog bo'lib shakllanishidan darak beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3261 sonli Qarori.

2. Jabborova, M. (2021). The importance of innovative technologies in the social development of society. Экономика и социум, (6-1), 129-132.

3. Jabborova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim sohasi talabalarida boshqaruvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Молодой ученый, (17), 394-395.

4. Jabborova, M. (2022). Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning roli. Scientific progress, 3(4), 167-173.

5. Jabborova M. Q (2022). Tarbiyachi kasbining ma'naviy axloqiy negizlari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 64-70.

6. Yusupova P. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -Qo'llanma, 1996.

7. M.Q.Jabborova. Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida TDPU Ilmiy xabarlar. 2022\ 12-son ISSN 2181-9580 (13.00.00 №32)

8. M.Q.Jabborova. The importance of communicative speech in improving the pedagogical training of future educators. «Science and innovation» International scientific journal volum 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | scientists.uz8f-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.768257>.